YANGI O‘ZBEKISTONDA EL AZIZ, INSON QADRI AZIZ!

YANGI BEKOBOD

Toshkent viloyati Bekobod tumani ijtimoiy-siyosiy gazetasi

Gazeta 1931-yildan chiqa boshlagan

2026-yil 25-iyun, №24 (8042)

BIZ O‘ZBEKISTON BILAN HAMKORLIK QILISHDAN MANFAATDOR BO‘LGAN, TENG HUQUQLI VA O‘ZARO FOYDALI SHERIKLIKKA TAYYOR INVESTORLAR UCHUN DOIMO OCHIQMIZ.

Shavkat MIRZIYOYEV



BESHINCHI TOSHKENT XALQARO INVESTITSIYA FORUMI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 17-iyun kuni beshinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumining yalpi majlisida ishtirok etib, nutq so‘zladi.

Tadbirda Albaniya Respublikasi Prezidenti Bayram Begay, Rossiya Federatsiyasi Hukumati Raisi Mixail Mishustin, Ozarbayjon Respublikasi Bosh vaziri Ali Asadov, Belarus Respublikasi Bosh vaziri Aleksandr Turchin, Qozog‘iston Respublikasi Bosh vaziri Oljas Bektenov, Qirg‘iz Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Raisi – Prezident Administratsiyasi rahbari Adilbek Kasimaliyev, Tojikiston Respublikasi Bosh vaziri Qohir Rasulzoda, Yangi taraqqiyot banki rahbari Dilma Rusef hamda boshqa ko‘p tomonlama moliya institutlari, xorijiy banklar, global korporatsiyalar, yirik kompaniyalar, investitsiya fondlari va ishbilarmon doiralar vakillari ham qatnashdi.

Forum 100 dan ortiq mamlakatdan 10 mingdan ziyod delegat va ishtirokchilarni bir joyga yig‘gani uning xalqaro nufuzi tobora ortib borayotganini hamda Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarga xalqaro hamjamiyatning ishonchi mustahkamlanayotganini yana bir bor tasdiqladi.

Davlatimiz rahbari o‘z nutqida O‘zbekiston xalqaro investorlar bilan teng huquqli va o‘zaro manfaatli sheriklik uchun doimo ochiq ekanini ta’kidladi.

Jahon iqtisodiyotida shiddatli transformatsiya jarayonlari kechayotgan va raqobat kuchayib borayotgan sharoitda tadbirkorlarning huquq va erkinliklarini himoya qilishga, barqaror iqtisodiy o‘sish va keng imkoniyatlarni ta’minlashga qodir bo‘lgan mamlakatlarga sarmoya kiritishga intilish tobora ortib borayotgani ko‘rsatib o‘tildi.

Bu borada O‘zbekistonda izchil amalga oshirilayotgan islohotlar aniq natijalar bermoqda. O‘tgan yili mamlakat iqtisodiyoti 7,7 foizga o‘sdi, joriy yilda esa yalpi ichki mahsulot hajmi 180 milliard dollardan ortishi kutilmoqda. Jalb qilingan investitsiyalar hajmi 43 milliard dollarga yetdi.

Makroiqtisodiy barqarorlikning mustahkamlangani muhim yutuq bo‘ldi: milliy valyuta barqarorligi saqlanib qolmoqda, xalqaro zaxiralar esa 70 milliard dollardan oshdi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston iqtisodiyotiga 150 milliard dollardan ziyod xorijiy investitsiya jalb qilingan bo‘lsa, shundan 123 milliard dollari oxirgi besh yilga to‘g‘ri kelmoqda.

Shu bilan birga, mamlakatimiz xalqaro reytinglardagi o‘z pozitsiyalarini mustahkamlashda davom etmoqda. Jumladan, “Iqtisodiy erkinlik indeksi”da mamlakat ilk bor “iqtisodiyoti mo‘tadil erkin” davlatlar qatoridan joy oldi.

Joriy yilgi forum “Investitsiyaviy barqarorlik: yangi marralar va yangi sheriklik” mavzusiga bag‘ishlandi. Davlatimiz rahbari investitsiya muhitining barqaror rivojlanishi mamlakatning uzoq muddatli maqsadlariga erishishning muhim sharti ekanini ta’kidladi.

Bu borada investitsiyaviy hamkorlikni yanada chuqurlashtirish va ishbilarmonlik faoliyatini yuritish uchun zamonaviy ekotizim yaratish bo‘yicha oltita ustuvor yo‘nalish belgilandi.

Investorlar uchun huquqiy kafolatlar tizimini yanada kuchaytirish birinchi yo‘nalish sifatida ko‘rsatildi.

O‘zbekistonda Toshkent xalqaro moliya markazi tashkil etilib, u maxsus huquqiy rejimga ega bo‘lgan yangi institutsional platforma sifatida faoliyat yuritadi.

Markaz ishtirokchilari uchun soliq va bojxona imtiyozlari, kapitalning erkin harakati kafolatlari hamda istalgan valyutada hisob-kitob qilish imkoniyatini berish nazarda tutilgan. Markaz infratuzilmasini shakllantirish doirasida mustaqil moliyaviy regulyator tashkil etiladi, raqamli aktivlar, “yashil” moliya uchun zamonaviy tizim yaratiladi.

Shuningdek, chet ellik sudyalar hamda xalqaro ekspertlar ishtirokida xalqaro arbitraj mexanizmlarini joriy qilish va tijorat sudini tashkil etish hamda BMTning Mediatsiya to‘g‘risidagi Singapur konvensiyasiga qo‘shilish rejalashtirilmoqda.

– *Ushbu choralar natijasida investorlar O‘zbekistonning o‘zida kafolatlangan xalqaro huquqiy himoyaga ega bo‘ladi,* – dedi davlatimiz rahbari.

Prezidentimiz o‘z nutqida kapital bozorini jadal rivojlantirish va yangi avlod moliya texnologiyalaridan keng foydalanishga alohida e’tibor qaratdi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston xalqaro bozorlarda 16 milliard dollardan ortiq obligatsiyalar joylashtirdi hamda London birjasida oxirgi besh yildagi eng yirik IPOni amalga oshirdi.

Xalqaro kapital bozorlariga chiqishga yangi kompaniyalarni tayyorlash jarayoni davom etmoqda hamda muqobil investitsiya vositalarini rivojlantirish uchun kapital bozori va investitsiya jamg‘armalari to‘g‘risidagi qonunlarni o‘z ichiga olgan huquqiy baza shakllantirilmoqda.

Suveren islom obligatsiyalari – sukuk dasturi amalga oshirilishi mamlakatimiz iqtisodiyotiga katta hajmdagi investitsiyalar oqimini jalb qilish uchun qo‘shimcha manba bo‘ladi.

Keyingi strategik yo‘nalish sifatida yuqori qo‘shilgan qiymat zanjirlarini kengaytirishga investitsiyalarni jalb etish belgilandi.

Barcha sanoat tarmoqlarida yangi texnologik bosqichga o‘tish bo‘yicha yirik dasturlar amalga oshirilmoqda. Yaqin yillarda sanoatda yuqori texnologiyali mahsulotlar hajmini 2,5 barobarga ko‘paytirish rejalashtirilgan.

Kimyo sanoati, mashinasozlik va robototexnika, yengil sanoat, qurilish materiallari ishlab chiqarish, elektrotexnika va farmatsevtika kabi drayver tarmoqlarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ushbu yo‘nalishlarning umumiy investitsiya salohiyati o‘nlab milliard dollarga baholanmoqda.

– *Sizlarning “yangi iqtisodiyot” tarmoqlaridagi tashabbuslaringizni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga tayyormiz,* – dedi Prezidentimiz.

O‘zbekiston yetakchisi umumiy qiymati 3 trillion dollarga baholangan muhim minerallar va boshqa yer osti boyliklaridan samarali foydalanish hamda xorijiy investorlar ishtirokida “Kelajak metallari” texnoparklarini rivojlantirishning ahamiyatiga ham urg‘u berdi.

Ustuvor yo‘nalishlar qatorida “yashil” energetika va sun’iy intellekt sohasidagi hamkorlikni yanada chuqurlashtirish ham qayd etildi.

Yaqin istiqbolda mamlakatimiz energetika balansida qayta tiklanuvchi energiya ulushi 54 foizga yetkaziladi. Shu bilan birga, energiyani saqlash tizimlari rivojlantiriladi, elektr tarmoqlari modernizatsiya qilinadi hamda “yashil” energiya hisobiga ishlaydigan data-markazlar barpo etiladi.

Sun’iy intellektni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratildi. Sun’iy intellektni joriy etish bo‘yicha Milliy strategiya doirasida ta’lim, davlat xizmatlari va biznesni raqamli transformatsiya qilishga qaratilgan keng ko‘lamli dasturlar amalga oshirilmoqda.

Qoraqalpog‘istonda sun’iy intellekt loyihalari va data-markazlar uchun imtiyozli investitsiya sharoitlari va soliq rejimiga ega bo‘lgan maxsus zona tashkil etilmoqda.

Maxsus huquqiy rejimga ega bo‘lgan O‘zbekiston xalqaro raqamli texnologiyalar markazini ishga tushirish bo‘yicha izchil ishlar olib borilmoqda.

Xorijiy ekspertlar tahlillariga ko‘ra, ushbu yangi yo‘nalish kamida 10 milliard dollarlik qo‘shimcha qiymat yaratish salohiyatiga ega.

– *Asosiy vazifamiz sun’iy intellekt orqali aholining barcha qatlamlari hayotini yaxshilash, undan ta’lim, davlat xizmatlari va biznes jarayonlarida keng foydalanishdan iborat,* – dedi Prezident.

Mintaqaviy transport-logistika bog‘liqligini yanada rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

O‘zbekiston hamkorlar bilan birgalikda “Xitoy – Qirg‘iziston – O‘zbekiston” strategik temir yo‘lini qurish, Transafg‘on yo‘lagini barpo etish hamda “O‘rta koridor” transport yo‘nalishini rivojlantirish kabi yirik infratuzilmaviy loyihalarni amalga oshirmoqda.

– *Ushbu loyihalarni to‘liq ro‘yobga chiqarish evaziga Osiyo va Yevropani bog‘laydigan transport magistrallar tarmog‘iga qo‘shilamiz,* – dedi davlatimiz rahbari.

Aviatsiya va logistika sohasida ham yirik megaloyihalar amalga oshirilmoqda. Jumladan, yiliga 20 million yo‘lovchiga xizmat ko‘rsatadigan yangi Toshkent xalqaro aeroporti qurilmoqda.

Oltinchi ustuvor yo‘nalish hududlarni rivojlantirishda investitsiyaviy hamkorlikni yangi bosqichga ko‘tarish masalalarini qamrab oldi.

Mamlakatimizda jadal demografik va iqtisodiy o‘sish sharoitida uy-joy qurilishi va shaharsozlik bo‘yicha yirik dasturlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, yangi shahar – “Yangi Toshkent” barpo etilmoqda, yirik hududiy markazlar millionli shaharlarga aylantirilmoqda.

– *2040-yilga qadar quriladigan uy-joylar sonini 2 karra oshirib, urbanizatsiya darajasini hozirgi 51 foizdan 65 foizga yetkazishni reja qilganmiz,* – dedi davlatimiz rahbari.

Turizm sohasini rivojlantirishga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Ushbu iqtisodiyot yo‘nalishi mamlakatimizda har yili 15-20 million chet ellik sayyohlarni qabul qilish va ularga yiliga kamida 15 milliard dollarlik turizm xizmatlari ko‘rsatish imkonini beradi.

Shuningdek, agrosanoat majmuasini transformatsiya qilish va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksportini rivojlantirish masalalariga to‘xtalib o‘tildi. Hozirda bu ko‘rsatkich yiliga 3,5 milliard dollarni tashkil etayotgan bo‘lsa, kelajakda uni 10 milliard dollarga olib chiqish istiqbollari mavjud. Prezidentimiz investorlar bilan ishlash jarayoniga hudud rahbarlarini faol jalb qilish va bu borada joylarda loyihaviy hamkorlikni kengaytirish muhimligini ta’kidladi.

Nutq yakunida Markaziy Osiyo va Kavkaz investitsiya kengashlarining mintaqaviy alyansini tashkil etish bo‘yicha taklif qo‘llab-quvvatlandi. Ushbu tashabbus umumiy investitsiya makonini shakllantirish uchun asos bo‘lishi mumkin.

Prezidentimiz huzuridagi Investorlar kengashi doirasida sarmoyadorlar bilan doimiy muloqotni yanada rivojlantirishga O‘zbekiston tayyor ekani tasdiqlandi.

Davlatimiz rahbari investitsiya faqatgina iqtisodiy resurs emas, balki ilg‘or texnologiyalar, zamonaviy bilim va tajribalar, yangi ish o‘rinlari va davr bilan hamnafas taraqqiyot ekanini ta’kidladi.

Yakunda Prezidentimiz mamlakatimizga katta ishonch va g‘oyalar bilan kelayotgan xorijiy sarmoyadorlarga Yangi O‘zbekistonning eshiklari hamisha ochiqligini aytdi.

– *Toshkent investitsiya ruhi barchangizni mamlakatimizga doim chorlab turishiga, umumiy muvaffaqiyat ramziga aylanishiga ishonaman. Yurtimizning go‘zal tabiati, betakror madaniyati va olijanob xalqimizning mehmondo‘st qalbi esa do‘stligimizni mustahkamlash uchun o‘ziga xos investitsiya bo‘lishiga aminman*, – dedi davlatimiz rahbari.

Sarvinoz SHERALIYEVA
tayyorladi.

JARAYON

INVESTITSIYAVIY HAMKORLIK ISTIQBOLLARI MUHOKAMA QILINDI

Bugungi kunda mamlakatimizda investitsiyalarni jalb etish, hududlarning iqtisodiy salohiyatini yuksaltirish va yangi ish o‘rinlarini yaratish borasida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, xalqaro investitsiya forumlari mahalliy va xorijiy investorlar o‘rtasida mustahkam hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘yish hamda istiqbolli loyihalarni hayotga tatbiq etish uchun xizmat qilmoqda.

2026-yil 16–18-iyun kunlari Toshkent shahrida mamlakatimizning nufuzli investitsiya maydonlaridan biri — V Toshkent xalqaro investitsiya forumi bo‘lib o‘tdi.

Mazkur yirik anjuman doirasida Bekobod tumanining investitsiya salohiyati, sanoat va ishlab chiqarish yo‘nalishlaridagi imkoniyatlari xorijiy investorlar e’tiboriga havola etildi. Xususan, Xitoyning “Shanxi Lida Paper Group” kompaniyasi vakillari bilan uchrashuv o‘tkazilib, tumanda amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan istiqbolli investitsiya loyihalari taqdim etildi.

Uchrashuv davomida mehmonlarga Bekobod tumanida tashkil etilgan “Bekobod” maxsus sanoat zonasi hamda “Oybek” savdo zonasidagi mavjud infratuzilma, ishlab chiqarish imkoniyatlari, investitsiya uchun yaratilgan shart-sharoitlar haqida batafsil ma’lumot berildi. Shuningdek, Bekobod tumani hokimi va “Shanxi Lida Paper Group” kompaniyasi vakillari o‘rtasida muzokaralar o‘tkazilib, yangi loyihalarni amalga oshirish hamda o‘zaro manfaatli hamkorlikni yo‘lga qo‘yish masalalari muhokama qilindi.

Uchrashuv yakunida kompaniya rahbariyati hududda istiqbolli investitsiya loyihalarini amalga oshirish bo‘yicha aniq takliflar ishlab chiqish va hamkorlikni rivojlantirishga qiziqish bildirdi.



Mazkur uchrashuv Bekobod tumanining investitsion jozibadorligini xalqaro miqyosda namoyon etish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish hamda hudud iqtisodiyotiga ilg‘or texnologiyalar va xorijiy sarmoyalarni jalb etish yo‘lidagi muhim qadamlardan biri bo‘ldi. Kelgusida bunday hamkorliklar natijasida yangi loyihalar hayotga tatbiq etilib, tumanning iqtisodiy taraqqiyoti va aholi farovonligini yanada yuksaltirishga xizmat qilishi kutilmoqda.

Bekobod tumani hokimligi
Axborot xizmati

BAYRAM SHUKUHI

Mustaqilligimizning 35 yilligi munosabati bilan yurtimiz bo‘ylab bayram tadbirlari ko‘tarinki ruh va yuksak shukuh bilan davom etmoqda. Bu qutlug‘ sana xalqimizning erkin va farovon hayot sari bosib o‘tgan sharafli yo‘li, qo‘lga kiritilgan ulkan yutuqlar hamda ezgu maqsadlarimizning yorqin ifodasidir.

YAGONA VATAN, YAGONA XALQ — YANGI HAYOT SARI!







Mana shunday bayram tadbirlaridan biri Bekobod tumani Qo‘shtamg‘ali mahallasida “Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz” shiori ostida bo‘lib o‘tdi.

“Mustaqillik to‘yi” festivalida Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi Bekobod tuman bo‘linmasi rahbari N.Jalilov, Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi boshlig‘i K.Pirnazarov, mahalla faollari, nuroniylar, yoshlar hamda keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdi.

Festival davomida so‘zga chiqqanlar mustaqillikning xalqimiz hayotidagi beqiyos o‘rni, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, bunyodkorlik ishlari va inson qadrini ulug‘lashga qaratilgan ezgu sa’y-harakatlar haqida fikr yuritdilar. Shuningdek, yurtimizdagi tinchlik va osoyishtalik, millatlararo totuvlik hamda hamjihatlikning qadr-qimmati alohida ta’kidlandi.

Bayram tadbiri doirasida xalqimizning boy madaniy merosi, milliy qadriyatlari va urf-odatlari keng namoyish etildi. Milliy kuy-qo‘shiqlar, sahna ko‘rinishlari, folklor chiqishlari, milliy liboslar namoyishi hamda rang-barang madaniy dasturlar yig‘ilganlarga unutilmas taassurotlar ulashib, bayram shukuhini yanada oshirdi.

Bunday ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar yosh avlod qalbida Vatanga muhabbat, milliy g‘urur va sadoqat tuyg‘ularini mustahkamlash, xalqimizni buyuk maqsadlar sari birlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mustaqillik — erkinligimiz, milliy g‘ururimiz va porloq kelajakka bo‘lgan ishonchimiz timsolidir. Uni asrab-avaylash va yanada mustahkamlash barchamizning muqaddas burchimizdir.

Yurtimiz tinch, xalqimiz farovon va birdam bo‘lsin! Xonadonlarimizdan fayz-u baraka, qalblarimizdan shukronalik tuyg‘usi arimasin!

Mustaqilligimizning 35 yilligi muborak bo‘lsin, aziz yurtdoshlar!

Mirzabek SHERBEKOV

DOLZARB MAVZU

FARZAND TA’MINOTI — QONUNIY VA MA’NAVIY MAS’ULIYAT

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 76-moddasida: “Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidadir. Nikoh O‘zbekiston xalqining an’anaviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligiga va teng huquqliligiga asoslanadi. Davlat oilaning to‘laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratadi”, deb belgilangan.

Shuningdek, Konstitutsiyaning 77-moddasida ota-onalar va ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar o‘z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta’lim olishi, sog‘lom, to‘laqonli va har tomonlama kamol topishi uchun g‘amxo‘rlik qilishga majbur ekani qayd etilgan. Ammo bugun jamiyatimizda o‘z farzandlarining moddiy va ma’naviy ta’minotiga mas’uliyat bilan qaramaydiganlar ham uchrab turibdi.

Toshkent viloyati fuqarolik ishlari bo‘yicha Bekobod tumanlararo sudining 2018-yil 12-yanvardagi sud buyrug‘iga ko‘ra, javobgar D.D.dan da’vogar M.M. foydasiga uning voyaga yetmagan bir nafar farzandi voyaga yetguniga qadar har oyda javobgarning ish haqi va (yoki) boshqa daromadining 1/4 qismi miqdorida aliment undirish belgilangan.

Biroq javobgar 2020-yil 20-martdan 2026-yil 17-martga qadar bo‘lgan davrda jami 15 938 322,75 so‘m miqdoridagi aliment pullarini to‘lashdan bo‘yin tovlaganligi aniqlandi.

Mazkur holat yuzasidan huquqbuzar tushuntirish berib, o‘z aybiga iqror bo‘ldi hamda sud majlisida bundan buyon aliment qarzdorligini vaqtida berib borishini aytdi. Shundan so‘ng u aliment bo‘yicha qarzdorlikni to‘liq bartaraf etib, mablag‘larni jabrlanuvchiga topshirdi.

Jinoyat ishlari bo‘yicha Bekobod tuman sudining 2026-yil 8-iyundagi qaroriga ko‘ra, huquqbuzar D.D. O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 47-4-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan huquqbuzarlikni sodir etganlikda aybli deb topildi.

Shu bilan birga, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 47-4-moddasi 2-qismiga asosan, yo‘l qo‘yilgan buzilishlar ish sudda ko‘rilguniga qadar bartaraf etilib, aliment majburiyatlari bo‘yicha qarzdorlik ixtiyoriy ravishda to‘liq qoplanganligi sababli huquqbuzar javobgarlikdan ozod qilindi. Unga nisbatan yuritilgan ma’muriy huquqbuzarlik ishi O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 271-moddasi 10-bandiga muvofiq tugatildi.

Farzand ta’minoti nafaqat qonuniy majburiyat, balki har bir ota-onaning farzandi oldidagi muqaddas burchidir. Ushbu burchni o‘z vaqtida va sidqidildan ado etish farzandlarning munosib kamol topishi hamda jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Abdulla TURAPOV,
Jinoyat ishlari bo‘yicha
Bekobod tuman sudining tergov sudyasi

Aholi salomatligi

CHUQURLASHTIRILGAN TIBBIY KO‘RIK TASHKIL ETILDI

Respublika ishchi guruhi tashabbusi bilan Bekobod tumani Pastki Kerayit mahallasida joylashgan 2-sonli oilaviy poliklinikada aholi uchun chuqurlashtirilgan tibbiy ko‘rik o‘tkazildi.

Mazkur tadbir aholining salomatligini mustahkamlash, kasalliklarni erta bosqichda aniqlash, ularning oldini olish hamda tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratildi. Aholi salomatligini muhofaza qilish va profilaktik tadbirlarni kuchaytirish bugungi kunda sog‘liqni saqlash tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Ko‘rik jarayonida O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining 10 nafardan ortiq tajribali tibbiyot mutaxassislari ishtirok etib, fuqarolarni keng qamrovli tibbiy ko‘rikdan o‘tkazdilar. Tadbir davomida, avvalo, “Ijtimoiy himoya reyestri”da ro‘yxatda turuvchi fuqarolar, shuningdek, tibbiy ko‘rikdan o‘tish istagini bildirgan aholi vakillariga alohida e’tibor qaratildi.

Malakali shifokorlar tomonidan endokrinologiya, nevrologiya, kardiologiya, stomatologiya, oftalmologiya va terapiya yo‘nalishlarida tibbiy ko‘rik hamda maslahatlar tashkil etildi. Mutaxassislar fuqarolarning sog‘lig‘i holatini o‘rganib, aniqlangan muammolar yuzasidan zarur tavsiyalar berdilar hamda sog‘lom turmush tarziga rioya qilish bo‘yicha tushuntirish ishlari olib bordilar.

Shuningdek, fuqarolarning sog‘lig‘ini yanada aniq baholash maqsadida zamonaviy diagnostika tekshiruvlari amalga oshirildi. Jumladan, laboratoriya tahlillari, elektrokardiografiya (EKG), rentgen, ultratovush tekshiruvlari (UZI) o‘tkazildi. Ushbu tekshiruvlar orqali ayrim kasalliklarni dastlabki bosqichlarda aniqlash va ularni o‘z vaqtida davolash choralarini ko‘rish imkoniyati yaratildi.

Ko‘rik davomida aniqlangan kasalliklar va boshqa tibbiy muammolar yuzasidan fuqarolarga shifokorlar tomonidan batafsil tushuntirishlar berilib, zarur tavsiyalar hamda keyingi davolanish uchun yo‘llanmalar taqdim etildi. Ayrim fuqarolar chuqurlashtirilgan tekshiruv va davolanish uchun tegishli tibbiyot muassasalariga yo‘naltirildi.

Bunday tibbiy tadbirlar aholi salomatligini muhofaza qilish, tibbiy xizmatlarning chekka hududlarga yanada yaqinlashishini ta’minlash, kasalliklarning oldini olish hamda sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Eng muhimi, fuqarolarning o‘z salomatligiga bo‘lgan e’tiborini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Sog‘lom xalq — taraqqiyot va farovonlik garovi!

Bekobod tuman hokimligi
Axborot xizmati

Ma’naviyat va ma’rifat

Bugungi kunda yurtimizda kitobxonlikni rivojlantirish, aholi, ayniqsa yoshlar o‘rtasida mutolaa madaniyatini yuksaltirish borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ana shunday ezgu maqsadlar yo‘lida joylarda ham turli ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar tashkil etilmoqda.

KITOBSEVAR YOSHLAR BELLASHUVI

Jumladan, Yangiovul mahallasida istiqomat qiluvchi 42-umumta’lim maktabining ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi Dilmurod Sattorov tashabbusi bilan o‘quvchilar o‘rtasida “Dilmurod ustoz kubogi” kitobxonlik tanlovi o‘tkazildi.



Tanlov avvaldan tavsiya etilgan 10 ta badiiy asar asosida ikki shart bo‘yicha tashkil etildi. Birinchi shartda ishtirokchilar o‘qigan asarlari yuzasidan sharh berishsa, ikkinchi shartda esa tezkor savol-javoblar orqali o‘z bilim va tafakkurlarini namoyish etdilar.

Qizg‘in va murosasiz bahslarga boy o‘tgan tanlov yakunlariga ko‘ra, 166,5 ball to‘plagan Latipova Shahrizoda 1-o‘rinni, 156,3 ball bilan Sultonova Sevinch 2-o‘rinni, 155,6 ball bilan Abduraimova Mohiniso esa 3-o‘rinni qo‘lga kiritdi.

G‘olib va sovrindorlar munosib taqdirlandi. Xususan, 1-o‘rin sohibasi zamonaviy planshet, bir yillik “Mutolaa Premium” obunasi, simsiz quloqchin hamda diplom bilan taqdirlandi. 2-o‘rin egasiga zamonaviy quloqchin, olti oylik “Mutolaa Premium” obunasi, sport sumkasi, yumshoq o‘yinchoqlar to‘plami va diplom topshirildi. 3-o‘rin sohibasi esa zamonaviy quloqchin, uch oylik “Mutolaa Premium” obunasi, sport sumkasi, yumshoq o‘yinchoqlar to‘plami hamda diplom bilan rag‘batlantirildi.

Shuningdek, tanlovda ishtirok etgan barcha o‘quvchilar zamonaviy quloqchin, bir oylik “Mutolaa Premium” obunasi va sertifikatlar bilan taqdirlandilar.

Mazkur tanlov yoshlar o‘rtasida kitobxonlik madaniyatini yanada rivojlantirish, mutolaaga qiziqishni oshirish hamda ularning ma’naviy dunyosini boyitishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Toir BERDIBEKOV,
“Yangiovul” MFY raisi

Tadbirkorlik va taraqqiyot

“KO‘ZMUNCHOQ” — KELAJAK SARI ILK QADAM



Mamlakatimizda maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish, bolalarning sifatli ta’lim va tarbiya olishi uchun qulay sharoitlar yaratishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu borada xususiy sektor vakillari tomonidan amalga oshirilayotgan tashabbuslar ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yaqinda “Yangiovul” mahalla fuqarolar yig‘ini Farovon ko‘chasi 35-uyda yakka tartibdagi tadbirkor Shaymanova Gulnora tomonidan “Ko‘zmunchoq” nodavlat maktabgacha ta’lim tashkiloti faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Mazkur ta’lim maskanining ishga tushirilishi mahalladagi maktabgacha yoshdagi bolalarni sifatli ta’lim-tarbiya bilan qamrab olish imkoniyatlarini yanada kengaytiradi. Muassasada bolalarning intellektual salohiyatini rivojlantirish, ularni maktab ta’limiga puxta tayyorlash hamda bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishga alohida e’tibor qaratiladi.

Bugungi kunda yosh avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu ma’noda, “Ko‘zmunchoq” nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotining faoliyat boshlashi nafaqat mahalla aholisi uchun qulaylik yaratadi, balki ta’lim sifatini oshirish va bolalarning kelajagiga mustahkam poydevor qo‘yishga ham xizmat qiladi.

Shubhasiz, bunday ezgu tashabbuslar kelajak egalari bo‘lgan farzandlarimizning barkamol voyaga yetishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Jahongir NURMUHAMMEDOV

Nigoh

IJTIMOIY TARMOQLARNING KASB TANLASHDAGI O‘RNI

Sir emaski, bugungi kunda internet olamiga bizni bog‘lab turgan asosiy vositalardan biri ijtimoiy tarmoqlardir. Zamonaviy texnologiyalarning keng ommalashuvi, mobilografiya, SMM mutaxassisligi kabi zamonaviy kasblarning ko‘payishi virtual dunyo ixlosmandlari sonining ortishiga sabab bo‘ldi. Shu bois ayrimlar onlayn hayotning inson ongi va ruhiyatiga ta’siridan xavotirga tushmoqda. Xo‘sh, ijtimoiy tarmoqlarning ta’siri aslida qanday?

“Instagram”, “Telegram”, “Facebook”, “YouTube” kabi platformalar bugun katta-yu kichikka birdek tanish. Ularning eng katta afzalligi axborot izlash, ma’lumot almashish va erkin muloqot qilish imkoniyatini yaratishidir. Makon va zamon tanlamasligi tufayli inson istalgan ma’lumotni soniyalar ichida topishi yoki dunyoning narigi chekkasidagi inson bilan bog‘lanishi mumkin.

Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlar mustaqil va masofaviy ta’lim olish, qo‘shimcha kasb-hunar o‘rganish, onlayn biznesni rivojlantirish imkoniyatlarini ham kengaytirmoqda. Shu sababdan, bugungi kun yoshlari virtual kasblarni o‘rganishni, ijtimoiy tarmoqlarda shaxsiy brend orqali daromad topishni afzal ko‘rishi tabiiy. Shuningdek, xayriya va ko‘mak aksiyalarining tashkil etilishida ham sotsial tarmoqning o‘rni katta.

Biroq internet platformalarining salbiy jihatlari ham mavjud. Avvalo, ulardan me’yoridan ortiq foydalanish vaqtning behuda sarflanishiga olib keladi. Shuningdek, ayrim blogerlarning “ideal hayoti”ni muntazam kuzatish kishilarda tushkunlik kayfiyatini keltirib chiqarishi mumkin. Internetga haddan tashqari berilish esa insonning real hayotdan uzoqlashib, jamiyatdan yakkalanishiga sabab bo‘ladi.

Menimcha, ijtimoiy tarmoqlar zamon bilan hamnafas bo‘lish uchun zarur vositadir. Ulardan kelajak sohasini tanlashda foydalanish ham maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan davrda yoshlarning kasbni to‘g‘ri tanlashi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Farzandlarning kasb tanlashida ota-onalarning turlicha qarashlari mavjud. Ularning qiziqishlariga zid ravishda kasb tanlab berish qanchalik to‘g‘ri?

Darhaqiqat, o‘zbek xalqida ota-onaga hurmat yuksak qadrlanadi. Biroq ayrim ota-onalar o‘zlari amalga oshira olmagan orzularini farzandlari orqali ro‘yobga chiqarishni istab, ularning qiziqishlarini e’tibordan chetda qoldiradilar. Natijada o‘z istagidan voz kechib tanlangan kasb ko‘pincha kutilgan samarani bermaydi.

Aksincha, farzandining qiziqishi va qobiliyatini qo‘llab-quvvatlagan ota-onalar jamiyatga yetuk mutaxassislarni tarbiyalab bermoqda. Bugun sportda, ilm-fanda va turli sohalarda yurtimiz nomini dunyoga tanitayotgan yoshlar bunga yaqqol misoldir.



Fikrimcha, ota-onaning duosini olib, shu bilan birga o‘z qiziqishi va salohiyatidan kelib chiqib tanlangan soha eng to‘g‘ri tanlovdir. Qiziqish, bilim va qat’iyat bilan egallangan kasb insonning ham, jamiyatning ham ravnaqiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishda ham, kasb tanlashda ham me’yor va ongli yondashuv muhimdir. Ana shundagina inson o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishib, jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo‘sha oladi.

Dinora XONIMQULOVA,
50-umumtalim maktabining amaliyotchi psixologi

TOSHKENT VILOYATIDA “MEDIA HAFTALIK” YUQORI SAVIYADA O‘TKAZILDI

Toshkent viloyatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ommaviy axborot vositalari uchun kontent tayyorlash markazi, O‘zbekiston Jurnalistlar uyushmasi, Yoshlar ishlari agentligi hamda Toshkent viloyati hokimligi hamkorligida tashkil etilgan “Media haftalik” loyihasi muvaffaqiyatli o‘tkazildi.

Mazkur loyiha jurnalistlar, blogerlar, matbuot kotiblari, kontent yaratuvchilar va media sohasi vakillarining kasbiy salohiyatini oshirish, zamonaviy media tendensiyalari bo‘yicha tajriba almashish hamda axborot makonida samarali faoliyat yuritish ko‘nikmalarini mustahkamlashga xizmat qildi.

Haftalik davomida ishtirokchilar uchun media va kommunikatsiya, raqamli platformalar, sun’iy intellekt imkoniyatlari, kontent yaratish, faktcheking hamda axborot xavfsizligi mavzularida seminar-treninglar, mahorat darslari va ochiq muloqotlar tashkil etildi. Mashg‘ulotlarda sohaning yetuk mutaxassislari ishtirok etib, o‘z tajribalari bilan o‘rtoqlashdilar hamda amaliy tavsiyalar berdilar.





“Men uchun Toshkent viloyati qadrli hududlardan biri. Juda ko‘p ijodiy ishlarimni shu viloyatda tayyorlaganman. O‘ziga xos tabiati, o‘ziga xos insonlari va o‘ziga xos qadriyatlari bilan ajralib turadi. Shuning uchun bu yerda kontent tayyorlash men uchun har doim zavqli bo‘lgan.”

Yulduz OLIMOVA,
telejurnalist



“Media haftalik”ning asosiy maqsadlaridan biri — media sohasida faoliyat yuritayotgan hamkasblarimizni bir maydonga jamlash, o‘zaro tajriba almashish hamda ularning kasbiy kompetensiyalarini oshirishdan iborat. Bu platforma jurnalist va kommunikatorlarning bilim hamda ko‘nikmalarini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.”

Beruniy ALIMOV,
ekspert

“Media haftalik” – bilim, tajriba va muloqot maydoni

Toshkent viloyatida bo‘lib o‘tgan “Media haftalik” soha vakillari uchun o‘ziga xos bilim va tajriba maktabiga aylandi. Jurnalistlar, blogerlar, matbuot kotiblari hamda kontent yaratuvchilarni bir maydonga jamlagan loyiha zamonaviy media sohasidagi dolzarb masalalarni muhokama qilish va kasbiy mahoratni oshirishga xizmat qildi.

Haftalikning ilk kuni qizg‘in va mazmunli ruhda o‘tdi. Seminar-treninglar davomida ishtirokchilar zamonaviy jurnalistika, raqamli media, kontent yaratish, sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish hamda samarali kommunikatsiya yo‘nalishlarida yangi bilim va ko‘nikmalarni egalladilar.

Interaktiv formatda tashkil etilgan mashg‘ulotlarda tajribali media ekspertlar o‘z bilim va tajribalari bilan o‘rtoqlashib, amaliy tavsiyalar hamda zamonaviy yondashuvlarni taqdim etdilar. Ochiq muloqotlar, fikr almashuvlar va amaliy topshiriqlar tadbirning samaradorligini yanada oshirdi.

Ayniqsa, sun’iy intellekt va inson omilining media sohasidagi o‘rni, faktchekingning ahamiyati, dezinformatsiyaga qarshi kurash, axborot xavfsizligi hamda ishonchli kontent yaratish kabi mavzular atrofidagi muhokamalar ishtirokchilarda katta qiziqish uyg‘otdi. Treninglar davomida raqamli dunyoda axborotning haqqoniyligi va media mas’uliyati masalalari keng tahlil qilindi.

Shubhasiz, “Media haftalik” davomida olingan bilim va tajribalar ishtirokchilarning kelgusidagi faoliyatida muhim ahamiyat kasb etib, mamlakatimiz media makonining yanada rivojlanishiga munosib hissa qo‘shadi.











Viloyatimizda 30 dan ortiq bosma nashrlar faoliyat yuritmoqda

Bugungi kunda Toshkent viloyati hamda uning barcha shahar-tumanlarida mahalliy gazetalar uzluksiz chop etib kelinmoqda. Joriy yilda hududiy gazetalarning haftalik umumiy adadi 100 ming nusxadan oshgani bosma nashrlarga bo‘lgan ehtiyoj va ishonchning yaqqol ifodasi bo‘ldi.

Viloyatda bo‘lib o‘tgan “Media haftalik”ning keyingi kunlarida barcha bosma nashrlar muharrirlari bosma mediada kontent tayyorlashning o‘ziga xos jihatlari yuzasidan bilim va malakalarini mustahkamladilar.

Mashg‘ulotlarda O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan jurnalist Husan Ermatov hamda taniqli ekspert Nozima Toshpo‘latova ishtirok etib, zamonaviy jurnalistika talablari, bosma OAVda sifatli kontent yaratish va auditoriya bilan samarali ishlash masalalari bo‘yicha o‘z tavsiya hamda tajribalari bilan o‘rtoqlashdilar.

Tadbir davomida bosma matbuotning bugungi kundagi o‘rni, uning jamiyat hayotidagi ahamiyati va rivojlanish istiqbollari yuzasidan fikr almashildi. Seminar-treninglar ishtirokchilarning kasbiy mahoratini oshirishga, hududiy nashrlar faoliyatini yanada takomillashtirishga xizmat qildi. Bu kabi uchrashuvlar esa bosma matbuotning nufuzi va ta’sirchanligini yanada mustahkamlashga zamin yaratdi.

Sarvinoz SHERALIYEVA tayyorladi.

27-IYUN – MATBUOT VA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI XODIMLARI KUNI!

BEKOBODNING MUSTAHKAM MINBARI

Bekobod tumaniga Z.Nizomiddinov hokim etib tayinlanganidan 3 oy o‘tib, 2025-yil 27-iyun – matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni munosabati bilan tumandagi ijodkor ziyolilar – jurnalistlar, shoirlar va yozuvchilar bilan muloqot o‘tkazdi. Mazkur uchrashuvda faxriy jurnalist sifatida kamina ham so‘zga chiqib, yangi hokimning boshlagan xayrli ishlari, xususan, tuman gazetasiga e’tibori haqida fikr yuritdim. Iqtisodiy inqiroz yoqasiga kelib qolgan gazeta tahririyatiga ko‘rsatilayotgan moddiy va ma’naviy yordam uchun minnatdorchilik bildirdim. Chunki bu gazeta mening hayotimda muhim o‘rin tutganligi, u tufayli tuman ijtimoiy-siyosiy jarayonlarida faol ishtirok etganligimni qayd etdim.

Darhaqiqat, men o‘z ijodiy faoliyatimni shu gazetadan boshlaganman. O‘quvchilik yillarimdan unda qatnashib yurgan bo‘lsam, 1974-yildan bevosita tahririyatda ishlay boshladim. Dastlab korrektorlik qildim, so‘ngra muxbir, bo‘lim mudiri, muharrir o‘rinbosari bo‘lib ishladim.

1981-yilda gazeta nashr etilayotganligining 50 yilligi munosabati bilan uning tarixini o‘rganishga to‘g‘ri keldi. Ma’lum bo‘lishicha, Bekobod tumanida dastlabki gazeta 1931-yilda “Paxtakor tovushi” nomi bilan chiqa boshlagan. Uning birinchi muharriri Rayimjon Hayitov bo‘lgan. 1937-1940-yillarda gazetaga Husanjon G‘oyib muharrirlik qilgan. 1940-yilda gazetaga “Bolshevik” nomi berilib, Risqitilla Nosirov muharrirligida nashr etilgan. 1943-1950-yillarda Diyor Boqiyev gazeta muharriri bo‘lib ishlagan.

Gazetaga 1952-yilda “Kommunist” nomi berilib, unga turli davrlarda Qosim Sarimsoqov, To‘ra Ummatov, Egamnazar Hotamov, Abduvali Qodirov, Robiya Abdushokirova, Mirsobir Yunusov, Furqat Holiqulov, Rajab Bagirov kabi insonlar muharrirlik qildilar. Ularning nomlari gazeta yubileyida hurmat bilan tilga olindi.

1984-yilga kelib tahririyatda ijodiy muhit buzilayotganligini, guruhbozlik boshlanganligini sezdim va rayon partiya qo‘mitasiga oddiy xodim bo‘lib ishga o‘tdim. Bu guruhbozlik keyingi yiliyoq gazeta muharririning boshiga yetdi. 1985-yil aprel oyida meni muharrirlikka taklif etishdi va men ushbu lavozimda Oliy partiya maktabiga o‘qishga ketgunimga qadar – 1988-yilning sentyabrigacha ishladim. Bu orada gazeta o‘qimishliligi va ta’sirchanligini oshirib, uning adadini 5200 tadan 7800 nusxaga chiqarishga erishdik, jamoatchilik bilan ishlashdagi faoliyatimiz uchun O‘zbekiston Jurnalistlar uyushmasining Ulyanova nomidagi mukofotiga sazovor bo‘ldik.

Oliy partiya maktabini bitirganimdan so‘ng o‘z ish faoliyatimni davlat idoralarida davom ettirdim. Tuman ijroiya qo‘mitasida ishlar boshqaruvchisi, tuman hokimligi tashkiliy bo‘limi mudiri vazifalarida ishladim. Ammo gazetadan ko‘ngil uzmay, o‘z ijodim bilan qatnashib turdim.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng, 1991-yil noyabr oyida bo‘lib o‘tgan tuman Kengashi sessiyasida tumanning sobiq birinchi rahbari, sobiq muharrir, tuman Kengashi deputati Egamnazar Hotamov taklifiga binoan gazetaga “Bekobod ovozi” nomi berildi. Bu yangi nomdan ilhomlanib, men quyidagi misralarni bitib, gazetada e’lon qildim:

Yoshi oltmishda, ammo bugun yangi nom olgan,
Ne-ne kunlarni ko‘rib, goho yig‘lab, goh kulgan,
Mushtariylarga abad oshino bo‘lib qolgan,
Ishi puxta, saranjom, ham sarishta gazetam.

Serquyosh bu diyorda mustaqillik rost bo‘lsin,
Unga jahon xalqining hammalari do‘st bo‘lsin,
Ko‘z olaytgan dushmanning esi og‘ib, past bo‘lsin,
Bu ishda bir tomondan kamarbasta gazetam.

“Paxtakor tovushi” deb dastlab seni atadik,
So‘ngra “davr ruhi” bilan noming qo‘ydik “Bolshevik”,
“Kommunist” partiyaning da’vatiga mos dedik,
Xullas, nom olaverib sarsongashta gazetam.

Rostga o‘rab yolg‘onni yozgan paytlaring bo‘ldi,
Balandparvoz gaplardan sahifalaring to‘ldi,
Nihoyat, oshkoralik shabadasi ham yeldi,
Bo‘lgin misol qultum suv cho‘l-u dashtda gazetam.

Sen orqali yangrasin xalqimizning haq so‘zi,
Har neni anglab yursin muxbirlaringning ko‘zi,
Pokiza bo‘lsin qalbing, ham yorug‘ bo‘lsin yuzing,
Bo‘lgin doim el aro bir farishta gazetam.

Keyinchalik men o‘z mehnat faoliyatimni qishloq fuqarolar yig‘ini raisi, tuman hokimligi devonxona mudiri, hokim o‘rinbosari vazifalarida davom ettirdim. Ochig‘ini aytishim kerakki, 2000-yilning o‘rtalariga kelib, gazeta faoliyatida sustkashlik sezila boshladi, materiallar saviyasi zamon talabidan orqada qolib, adadi nihoyatda kamayib ketdi, tahririyat moddiy ahvoli og‘irlasha boshladi. Sog‘lig‘i yomonlashgan muharrir F.Ziyodullayev o‘z arizasi bilan vazifasidan ozod etildi. Bu holatlar jonkuyar jurnalist, shu sohaga mehnati singan inson sifatida meni tashvishga soldi va tuman hokimi T.Komilovdan gazetani menga ishonib topshirishni iltimos qildim va 2006-yil aprel oyida gazetaga muharrir etib tayinlandim.

To‘g‘risi, tahririyatning ahvolini bunchalik nochor deb o‘ylamagan edim. Ajratilgan xonalar ta’mirtalab, birorta ham sog‘ jihozning o‘zi yo‘q, texnika vositalari haqida gapirmasa ham bo‘ladi. Bitta eski yozuv mashinkasi va mashinistka bo‘lib, yozilgan materiallar biror tashkilot kompyuterida qayta yozilarkan va diskka ko‘chirilib bosmaxonaga yuborilar ekan. Yillik obuna 480 donaga tushib qolgan, bosmaxonadan va mart oyi ish haqidan qarzdorlik yuzaga kelgan, bank hisob raqamida umuman mablag‘ qolmagan ekan. Dastlab ish faoliyatimni hokimiyatdan olgan ish haqim va rag‘bat mablag‘im hisobidan xonalarni va mebellarni ta’mirlashdan boshladim. So‘ngra homiy topib, kompyuter, printer, fotoapparat va boshqa vositalar sotib oldik. Mashinistka shtatini qisqartirib, har bir xodimning o‘zi kompyuterda material tayyorlashini va sahifalashini yo‘lga qo‘ydik. Hokimiyat yordamida ikkinchi yarim yillik uchun obunani tashkillashtirdik. Faqatgina ramasi qolgan xizmat mashinasini sotib, mablag‘ini ishlatdik. Yil oxiriga borib tahririyat faoliyati yo‘lga tushib oldi.

Keyingi yillarda gazetaning saviyasini yaxshilash, joylarda muntazam uchrashuvlar o‘tkazish hisobiga obunachilar sonini oshirib borishga erishdik. 2009-yil oxiriga kelib gazeta adadi 3200 nusxaga yetdi va shu yili O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi nodavlat-notijorat tashkilotlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat Fondi tanlovida g‘olib chiqib, davlat grantini qo‘lga kiritdik. Men 2013-yilgacha muharrirlik qilgan bo‘lsam, shu yillar mobaynida xo‘jaliklarda vakillik vazifasini bajardim. Bu paytlarda kunduz kunlari dalada bo‘lib, asosan kechalari gazeta bilan shug‘ullanar edim. Ammo oxirgi paytlarda sog‘lig‘imdagi mu- ammo tufayli 2-3 oy biriktirilgan xo‘jaligimga bora olmadim. Tuman hokimiga uzrimni aytib, daladan ozod qilishini, faqat o‘z xizmat vazifamni bajarishimni iltimos qildim. Biroq u: “Menga dala kerak – paxta, g‘alla kerak, gazeta kerak emas”, - deb ariza yozishga majbur qildi. Shunday qilib, 2013-yil fevral oyida qadrdon tahrririyatni tark etib, viloyat gazetasi – “Toshkent haqiqati”da o‘z ijodimni davom ettirdim.

Xullas, bugunga kelib tuman hokimi tomonidan gazetaga va jurnalistlarga e’tibor va g‘amxo‘rlik boshlanganligidan qalbim to‘lqinlanib, ushbu satrlarni yozishga jazm etdim. O‘ylaymanki, gazetaga e’tibor – ma’rifatga, ma’naviyatga e’tibor bo‘lib, u bekobodliklar ijtimoiy hayotida muhim rol o‘ynaydi, tuman matbuoti esa xalqning haq ovozi yangraydigan mustahkam minbarga aylanadi.

Karimqul MAVLONOV,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi,
faxriy jurnalist



1980-yil dekabr.
“Kommunist” gazetasi xodimlari.



1982-yil.
“Kommunist” gazetasi xodimlari:
o‘ngdan – Ashurali Hamzayev,
Muhiddin Qorabekov, Yusuf Ergashov.



1983-yil bahor oyi.
“Kommunist” gazetasi tahririyati hovlisi.
Ishchi qishloq muxbirlari bilan.

Suratlar O‘zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a’zosi Muhiddin QORABEKOVNING shaxsiy arxividan olindi.

TUMAN TARIXIDAN

SHARAFLI UMR SOHIBI



Abdumannon Umaraliyev 1931-yilda Bekobod tumanida tug‘ilgan. Butun umrini qishloq xo‘jaligini yuksaltirishga sarflagan, tumanimizda birinchilar qatorida Toshkent qishloq xo‘jaligi instituti (hozirgi Toshkent davlat agrar universiteti) ning kunduzgi bo‘limini tamomlab, bo‘lim agronomi vazifasidan sovxoz direktori, tuman qishloq xo‘jaligi boshqarma boshlig‘i vazifalarda xizmat qilgan, yuzlab shogirdlarni tarbiyalab yetishtirgan ajoyib inson, charchash nimaligini bilmagan mohir rahbar-agronom edilar.

2010-yilning kuz kunlari edi. Abdullajon hoji ota meni uylariga taklif qildilar. “Nuralijon, men ko‘p yillardan buyon umrim davomida ko‘rgan-kechirganlarimni, bolalik-yoshlik yillarim xotiralarini yozib yuraman. Siz yozuvchi-shoir sifatida shu bitiklarimni bir o‘qib chiqsangiz, so‘ngra ularni chop etish haqida bir maslahatlashardik,” – dedilar. Men bajon-u dil rozi bo‘ldim. Otaning ikki o‘g‘li Ravshanbek va Rustamjonlar bilan bir maktabda o‘qib, birga katta bo‘lganmiz. Ikkov do‘stim ham u paytlar mas’ul vazifalarda ishlashar, meni hoji bobomning kitobini yozayotganimni to‘liq qo‘llab-quvvatlashgan edilar.

Shunday qilib, Abdumannon hoji otamning chiroyli dasxat bilan yozilgan xotira daftarlarini o‘qishga kirishdim. Ularni o‘qir ekanman, ko‘z oldimdan tumanimiz markazi Zafar shaharchasining o‘tgan asr 30-yillaridagi holati, Andijondan ko‘chirma bo‘lib kelingan bobolarimizning turmush tarzi, Ikkinchi jahon urushigacha va undan keyingi og‘ir tiklanish yillari, Bekobodni yelkasida ko‘tarib tiklagan ota-bobolarimiz ko‘z o‘ngimdan o‘tdi.

Hoji ota bilan hamkorlikda kitobni yoza boshladik. Xotiralarni o‘qib, sayqal berib nashrga tayyorlar ekanman, otaning fikri tiniqligidan, voqea-hodisalarni hech bezamasdan, faktlar bilan sodda tilda hikoya qilishidan, qahramonlari qatorida O‘zbekistonning o‘sha davrdagi rahbarlaridan tortib oddiy suvchilar, dehqonlar, zahmatkash mexanizatorlarning borligi havasimni oshirar edi. Hoji otamning kitobida O‘zbekistonimiz, uning qishloq xo‘jaligining 80 yillik tarixi mujassam edi.

Abdumannon hoji ota 90 yil sharafli, yurtimiz, tumanimiz tarixida qoladigan, har bir yili tinimsiz mehnat zahmati bilan yo‘g‘rilgan barakali umr ko‘rdilar. O‘zining sevimli umr yo‘ldoshi Adolat hoji ona bilan 5 o‘g‘il, 1 qiz farzandni voyaga yetkazib, o‘ziga o‘xshagan yurtim deb, Vatanim deb yashaydigan insonlar qilib tarbiyalab oyoqqa qo‘ydilar. Hammasini o‘qitib, uyli-joyli qilib, ularning rohatini ko‘rdilar.

Hoji Abdumannon ota Umaraliyev 2022-yil 12-dekabr kuni 91 yoshida vafot etdilar. Ularni so‘nggi safarga butun Bekobod ahli, qo‘shni tuman va viloyatlardan kelgan safdoshlari, shogirdlari va qadrdonlari kuzatib qo‘ydi.

Nurali JALIL

BEKOBOD TUMANI VA UNING QISQACHA TARIXI

Bekobod tumani Toshkent viloyatining aholisi, ekin maydoni, paxta, chorva mahsulotlari yetkazib beruvchi eng ko‘p bo‘lgan tumanlaridan biri bo‘lib, 1926-yil 28-sentyabrda tashkil topgan.

Tuman Toshkent shahridan 110 – 120 km uzoqlikda joylashgan. Maydoni 698 kvadrat kilometr. Shimolda viloyatning Bo‘ka tumani bilan, shimoliy sharqda esa Tojikiston Respublikasi So‘g‘d (sobiq Leninobod) viloyatining Mastchoh va janubiy sharqda Nov tumanlari bilan chegaradosh. Shuningdek, g‘arbda Bekobod shahri va Sirdaryo viloyatining Boyovut tumani bilan ham chegaradoshdir.

Bekobod tumanining suvsiz va qaqroq yerlariga suv chiqarish ishlari bevosita irrigator olima Tatyana Aleksandrovna Kolpakova nomi bilan bog‘liq. U 1925-yilda hukumat yo‘llanmasi bilan “Dalvarzin” cho‘lini o‘zlashtirish uchun yuboriladi. T.Kolpakova bir necha yil tinimsiz mehnat qilib, “O‘ng irmoq” va “Chap irmoq” kanallari loyihasini chizadi. Kanallar mazkur loyiha asosida uning boshchiligida texnika va qo‘l kuchi yordamida qaziladi. Shuningdek, “Xos-yoz” kanali hamda “Urtukli” tashlama kollektori loyihasining muallifi ham T.Kolpakovadir. Undan tashqari, xo‘jaliklararo katta-kichik suv shoxobchalari hamda betonli to‘g‘on joylari loyihasi ham T.Kolpakova tomonidan mukammal holatda tayyorlangan.

BEKOBOD SHAMOLI

Shu o‘rinda Bekobod shamoli haqida ikki og‘iz so‘z aytsak. Bekobod shamolining dovrug‘ini kim eshitmagan? Manbalarda ta’kidlanishicha, sekundiga 30-35 metr tezlikda esadigan Bekobod shamolini Qo‘qon tomondan keladigan shamol Mo‘g‘ul tog‘iga urilib ikki tarafga bo‘linishi yuzaga keltiradi. Birinchi yo‘nalish Bekobod shahrini keng hajmda qamrab olgan holda Xovos va Yangiyer hududlari orqali o‘tadi. Ikkinchi yo‘nalish esa sobiq “Avangard”, Oybek nomli va “Yangi hayot” xo‘jaliklari hududlarini qamrab o‘tadi. 1970-yillargacha shamol natijasida 1,5-2 ming gektar maydondagi shir qum osmonga 40-50 metr sariq chang ko‘tarib, sutkalab to‘xtamas edi. Natijada yangi qurilgan magistral yo‘lni qum uyumlari to‘sib qo‘yardi. Keyinchalik ob-havodagi o‘zgarishlar, Mastchoh rayonining tashkil bo‘lishi hamda ekilgan daraxtlar evaziga va “Mo‘yiqum”da ihota daraxtlari o‘stirilishi natijasida bunday holat yo‘qoldi. Bu ishlar o‘sha paytdagi tuman partiya qo‘mitasining birinchi kotibi Z.Mahsumov, “Avangard” sovxozi direktori B.Mirzakarimov va Bekobod o‘rmon xo‘jaligi direktori H.Mirrahimovlar boshchiligida amalga oshirildi.

Bekobod shamoli shunchalik “mashhur” ediki, avvallari radio va televideniyeda ob-havo ma’lumoti o‘qilganda O‘zbekiston ob-havo sharhlovchisi Toyloqov, albatta, Bekobod shamolini qayd etib o‘tardi.

TOSHKENT – BEKOBOD MAGISTRAL YO‘LI

1960-yillargacha tumanimiz aholisi Toshkentga ikki yo‘nalishda bir necha kun sarf qilib borib kelar edi. Birinchisi, avtomobil transportlari bilan Xovos, Guliston orqali, transporti bo‘lmagan aksariyat odamlar esa, Xilkovo stansiyasidan Toshkent-Namangan, Andijon-Toshkent, Jalolobod-Toshkent, Andijon-Moskva poyezdlari bilan Toshkentga borishardi. Ikkinchisi, yoz paytlari “1-Dalvarzin” sovxozi orqali Sardob ko‘prigidan o‘tib, 18-20 kilometr masofa yo‘l bosib, Yantoq (hozirgi Mastchoh tumani markazi – Bo‘ston)dan “40-adir” deb nomlangan yo‘nalishda Bo‘ka, Murotali, Piskent bilan Angren daryosini kechib Toshkentga borishardi. Bahor mavsumida suvni kechib o‘tish xavfli bo‘lgani uchun mashinalarni maxsus zanjirli traktor olib o‘tib qo‘yar edi. Toshkent-Bekobod magistral yo‘li qurilmaguncha Tuyabo‘g‘iz (Tashmore) suv havzasi ham barpo etilmagan edi.

O‘sha davrlarda tumanning hozirgi “Chanoq” qishlog‘i hududidagi katta-kichik kolxozlardan tuman markazi bo‘lgan Bekobod shahriga borish uchun hozirgi Oybek bojxona posti joylashgan yo‘l orqali avval Yantoqqa, keyin “1-Dalvarzin”ga kelib, so‘ngra Bekobodga borilar edi.

1957-yil kech kuz paytlarida Toshkent-Bekobod yo‘li qurilishi boshlandi. Noyabr oyining oxirlarida 2 dona S-100 markali buldozer kelib hozirgi Ilhomjon O‘sarov yashab turgan hovli qarshisidan paxta ekin maydonlarini sura boshladi. 3-4 kundan keyin esa buldozerlar soni 15-20 tadan oshib, kecha-yu kunduz ekin maydonlarini o‘yib, sura boshlashdi. Shu bilan bir qatorda “Urtukli” kollektori ustiga beton ko‘prik qurildi, yo‘lni kesib o‘tuvchi katta-kichik suv tarmoqlariga beton trubalar o‘rnatildi. Bekobodni Toshkent bilan bog‘lovchi bu muhim magistral yo‘l qurilishida yuzlab qisqa kunlar ichida har xil texnikalar ishlay boshladi. Natijada 1968-yil oxirida tuman aholisining uzog‘i yaqin bo‘ldi. Avvallari Toshkentga borish uchun 8-10 soat yoki sutkalab vaqt sarflagan yo‘lovchilar keyinchalik 2-2,5 soatda Toshkentga yetib oladigan bo‘ldilar.

QORA “ZIM” MASHINA

(tarixiy lavha)

1948-yilning iyul oylarida Shevchenko nomli maktabdan uyga qaytishda “3-Dalvarzin” sovxozi katta idorasi oldida (hozirgi poliklinika o‘rnida) bir qora “Zim” mashina ichida rus haydovchi o‘tirganini sinfdoshlarim bilan 4-5 metr olislikda tomosha qilib turdik. Bu mashinani ayrim sinfdoshlarim umuman ko‘rmagan ekan. 15-20 daqiqadan so‘ng idoradan uch kishi – biri qora kostyum-shim kiygan rus, ikkinchisi oq hoshiyali ukrain ko‘ylakda va uchinchisi oyog‘ida etik kiygan oq ko‘ylakli xodimlar chiqishib “Zim”ga o‘tirib ketishdi. So‘ng bizlar idora xodimlaridan so‘rasak, rus kishi SSSR yengil sanoat ministri Aleksey Nikolayevich Kosigin (keyinchalik Sovet hukumati Vazirlar Kengashi raisi), ikkinchisi O‘zbekiston markaziy komitetining birinchi kotibi Usmon Yusupov va uchinchisi sovxoz direktori Abdukarim Isaboyev ekan. Abdurauf akamning aytishicha, o‘sha kuni O‘zbekistonga vakil bo‘lib kelgan Kosigin va Usmon Yusupov ishtirokida sovxozda direktor bo‘lib ishlab turgan Ibrohim Xoliqulovni ishdan olib, o‘rniga A.Isaboyevni sovxozga direktor qilib tayinlab ketishgan ekan.

Qisqa vaqt o‘tmasdan sovxozga yangi tayinlangan direktor A.Isaboyev sovxozning so‘lim, qalin qora tol daraxtlari ekilgan, katta suv hovuziga ega bo‘lgan shirinsuxan, mehmondo‘st, ajoyib inson Maxsim akaning choyxonasida 1000 kishidan ortiq erkak va ayol paxtakor dehqonlar qatnashuvida paxtakorlar slyoti o‘tkaziladi. Yig‘ilishga sovxozning yaqin bo‘limlaridan ot-aravalarda va uzoq bo‘limlardan “Zil-5” gruzovoy mashinalarida erkak va ayollar olib kelinadi. Katta slyot majlisiga qishloq xo‘jalik vaziri Mirzali Muhammadjonov ham taklif qilinadi. Muhammadjonov o‘zi bilan birga Respublikada ko‘zga ko‘ringan san’atkorlar Berta Davidova, Fotima Burxonova, Shahodat Rahimova, Farog‘at Rahmatova, Kommuna Ismoilova hamda Farg‘ona askiyachilarini olib keladi. Majlisda kechga yaqin muzokaralar tugaganidan va M.Muhammadjonovning yakunlovchi ma’ruzasidan so‘ng san’atkorlar tomonidan katta konsert beriladi.

Juda yaxshi eslayman, o‘sha yillarda Sovxoz bosh agronomlari toshkentlik Qodirxonov, keksa chol Naydyonov va uchinchi bo‘lim (hozirgi “Zafar”) plevodlari hosilot Mullaboy tog‘a Ahmedov (Isaboyevning qaynotasi edi) Yakov Dyomin va bo‘lim boshlig‘i Slabadyanskiy ministr Muhammadjonovning qaynag‘asi bo‘lgan. Ular doim qishin-yozin ot minib dalada yurishar edi. Yoshligimizda dalada mol-qo‘y boqib yurganimizda ularni doim dalada ko‘rar edik.

O‘sha kuni kechasi konsertdan so‘ng ayol artistkalarni Abdurauf akam bilan birga tosh fonar yorug‘ida tomorqalar oralab uyimizga olib kelgan edik. Xudo rahmatli onam mehmonlarga to‘shakni uzum valishi tagiga solib qo‘ygan ekan. Mehmonlar onam tayyorlab qo‘ygan ovqatlarni ham yemasdan valishda osilib turgan uzumlardan o‘zlari qo‘llari bilan uzishib yeganlari hamon yodimda. Onam ertalabki nonushtaga qatlama non va suyuq shavla tayyorlab qo‘ygan ekanlar. Bunday hurmat-e’tibordan mehmonlarning boshi ko‘kka yetdi. Ertalab mehmonlarni kuzatish uchun uyimizga matras ko‘rpachalar solingan bortovoy mashina keldi. Abdurauf akam mehmonlarni Bekobodga olib borib poyezdga chiqarib, Toshkentga jo‘natib keladi. Abdurauf akam o‘sha yillarda Sovxozning ko‘zga ko‘ringan va ishonchli aktiv xodimlaridan hisoblanar edi.

Kun savoli

RAMZLARNI KIM YARATADI?

O‘zbekiston futboli tarixida ilk bor milliy terma jamoa madhiyasi kompozitor, shoir yoki ijodiy jamoa tomonidan emas, balki sun’iy intellekt algoritmi yordamida yaratildi. Xo‘sh, buni qanday qabul qilish mumkin?

Ma’lumki, har qanday musiqiy asar badiiy mazmun va muayyan melodiya, ritm, garmoniya, tembr dramaturgiyasi, shakl va boshqa ifoda vositalariga ega bo‘ladi. Kompozitor asarni faqatgina kasbiy bilim va mahorati tufayli yaratmaydi. Uning hayotiy tajribasi, hissiy kechinmalari, madaniy xotirasi, dunyoqarashi va individual uslubi ham asar to‘qimasiga singib ketadi.

Sun’iy intellekt esa boshqacha ishlaydi. Uning faoliyati mavjud asarlarning ulkan miqdorini tahlil qilish va ehtimoli yuqori bo‘lgan badiiy yechimlarni statistik modellashtirishga asoslanadi. Shu bois, algoritmlar dolzarb tendensiyalarni aniqlash, turli musiqiy elementlarni birlashtirish va belgilangan talablarga tashqi jihatdan mos keladigan kompozitsiyalarni yaratishga qodir. Tabiiy savol tug‘iladi: bunday hol madaniy ramz maqomiga da’vogar bo‘lgan asarni yaratish uchun yetarlimi?

Musiqa san’atida madhiya janri alohida o‘rin tutishini bilamiz. Uning vazifasi faqat muayyan g‘oyani ifoda etish emas, balki milliy birdamlik, yurt taqdiriga daxldorlik va jamoaviy o‘zlik tuyg‘usini shakllantirishdan iborat. Yaxshi madhiya yorqin va oson esda qoladigan melodik kuyga, aniq shakliy tuzilishga, ta’sirchan naqoratga ega bo‘lib, jamoaviy ijro etish imkoniyatini taqdim etishi lozim.

Futbol tarixida bunday asarlarning mutlaq muvaffaqiyat qozongan namunalari talaygina. 2008-yilgi Yevropa chempionatining rasmiy qo‘shig‘i xonanda Enrike Iglesias tomonidan kuylanib, musobaqaning muhim madaniy voqeasiga aylangan. Shuningdek, Riki Martinning 1998-yilgi jahon chempionati ramziga aylangan “The Cup of Life” asari, 2004-yil Portugaliyadagi Yevropa chempionati bilan bog‘liq bo‘lgan “Força” kompozitsiyasi, Shakiraning



2010-yilgi Janubiy Afrika Respublikasidagi jahon chempionati uchun yaratilgan “Waka Waka” qo‘shig‘i hamda 2014-yil Braziliyadagi jahon chempionatining “We Are One” (Ole Ola) qo‘shig‘i jahon miqyosida mashhurlikka erishgan.

Musiqiy tilidagi farqlarga qaramasdan, yuqorida keltirilgan asarlarni bir qator umumiy xususiyatlar birlashtirib turadi: aniq kompozitsion shakl, ta’sirchan melodizm, ritm va kuy yo‘lining uyg‘unligi hamda ommaviy ijro uchun qulaylik. Aynan shu xususiyatlar ushbu qo‘shiqlarning muxlislar ma’naviy-madaniy xotirasida uzoq vaqt saqlanib qolishini ta’minlaydi.

25-may kuni O‘zbekiston terma jamoasini jahon chempionatiga kuzatish marosimida taqdim etilgan futbol madhiyasi jamoatchilik orasida turlicha munosabatlarga sabab bo‘ldi. Musiqiy dramaturgiya nuqtayi nazaridan mazkur asarda zamonaviy generativ musiqaga xos jihatlar kuzatiladi. Asarda musiqiy materialni yodda qoldiruvchi aniq kuplet-naqorat tuzilishi yetarli darajada shakllanmagan. Melodik yo‘l esa jamoa yoki mamlakatning musiqiy ramziga aylanishi mumkin bo‘lgan yorqin va kuychan ohangga ega emas. Shu bois, asar ommaviy ijro va jamoaviy qabul uchun jozibali emas.

Asarning adabiy jihati ham ayrim savollarni tug‘diradi. Matnda vatanparvarlik shiorlari va hissiy chaqiriqlar mavjud bo‘lsa-da, u keng badiiy obrazlar tizimi yoki individual poetik bayonni taklif etmaydi. Holbuki, aynan she’riy matnning badiiy teranligi bunday asarlarning uzoq umr ko‘rishiga xizmat qiluvchi muhim omil hisoblanadi.

Albatta, zamonaviy texnologiyalar yordamida qo‘shiqlar, madhiyalar, simfoniyalar va hatto operalarni ham yaratish mumkin. Bugungi kunda bunday texnologiyalar kompozitorlar, aranjirovkachilar va ovoz rejissyorlari faoliyatining muhim qismiga aylanib borayotgani ham sir emas. Ular asarning ohangdorligini ta’minlash, aranjirovka jarayonini tezlashtirish va ko‘plab texnik vazifalarni hal qilishga yordam beradi.

Muammo texnologiyaning o‘zida emas, balki texnologiya madaniy va ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarda insonning o‘rnini bosishga urinayotganida yuzaga keladi. Agar asosiy ustuvorlik musiqiy mahsulotni tez ishlab chiqarish va u bilan bog‘liq xarajatlarni kamaytirishga qaratilgan bo‘lsa, kompozitorlar, shoirlar, aranjirovkachilar, musiqachilar va boshqa ijodiy kasb egalarining ahamiyati asta-sekin pasayib boradi. Shu bilan birga, jamiyat nafaqat ish o‘rinlarini, balki voqelikni muallif shaxsi orqali badiiy anglash an’anasini ham yo‘qotish xavfiga duch keladi.

Yana bir muhim holatni e’tibordan chetda qoldirmaslik lozim. Bugun mamlakatning madaniy ramzi maqomiga da’vogar bo‘lgan musiqiy asarlarni yaratish ko‘p sonli mutaxassislar ishtirokida jamoaviy tarzda amalga oshiriladigan ijodiy jarayonga aylangan. Sun’iy intellekt ayrim vazifalarni bir necha daqiqada bajara oladi, xolos, insonlar jamoasi esa buning uchun kunlar va haftalarni sarflaydi. Shuning uchun masala kompozitorning algoritm bilan raqobatida emas, balki ijtimoiy va madaniy ahamiyatga ega asarlarni yaratish jarayonida ijodkor insonlar jamoasining o‘rnini saqlab qolishdadir.

Mamlakatni xalqaro maydonda namoyon etadigan asarlarni yaratish nafaqat badiiy, balki madaniy-siyosiy vazifa ham hisoblanadi. Bunday asarlar davlatning intellektual salohiyatini, milliy madaniyatning taraqqiyoti darajasini va jamiyatning o‘z ijodiy merosiga nisbatan bildirgan munosabatini aks ettiradi. Shu bois rasmiy xarakterdagi madhiyalar, bayram qo‘shiqlari va boshqa madaniy ramzlarni yaratishda professional ijodiy hamjamiyatlarni qo‘llab-quvvatlash va inson muallifligi ustuvorligini saqlashga alohida e’tibor qaratish zarur.

Texnik jihatdan qanchalik mukammal bo‘lmasin, algoritm tomonidan yaratilgan har qanday madhiya mualliflik, milliy-madaniy o‘zlik va san’atda insonning o‘rni bilan bog‘liq jiddiy masalalarni keltirib chiqaradi. Bu esa faqat musiqa san’ati doirasi bilan cheklanib qolmay, bugungi kunning eng muhim falsafiy muammolaridan biriga aylanmoqda.

Oydin ABDULLAYEVA,
kompozitor, professor

E’tibor qarating

GIYOHVANDLIKKA QARSHI KURASHISH – SOG‘LOM JAMIYAT GAROVI

Giyohvandlik bugungi kunda insoniyat oldida turgan eng jiddiy global muammolardan biridir. U nafaqat inson salomatligiga, balki oila, jamiyat va davlat taraqqiyotiga ham katta zarar yetkazadi.

Giyohvand moddalarni iste’mol qilish natijasida odamning jismoniy va ruhiy salomatligi izdan chiqadi, jinoyatchilik ortadi, oilalar buziladi va iqtisodiy yo‘qotishlar yuzaga keladi. Shu sababli giyohvandlikka qarshi kurashish har bir davlatning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Giyohvand moddalar va jinoyatchilik bo‘yicha boshqarmasi (UNODC) ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yilda dunyo bo‘yicha 15–64 yoshdagi aholining qariyb 316 million nafari, ya’ni 6 foizi kamida bir marta giyohvand moddalarni iste’mol qilgan. Bu ko‘rsatkich 2013-yildagi 5,2 foizdan sezilarli darajada oshgan.

Yoshlar giyohvandlik xavfiga eng ko‘p duch keladigan qatlam hisoblanadi. Noto‘g‘ri muhit, qiziquvchanlik, tengdoshlar bosimi va bo‘sh vaqtning samarasiz o‘tishi ularni zararli odatlarga boshlashi mumkin. Shu bois yoshlarni sport, fan, san’at va boshqa foydali mashg‘ulotlarga jalb etish muhim ahamiyatga ega.

Giyohvandlikka qarshi kurashishda oila alohida o‘rin tutadi. Ota-onalar farzandlarining tarbiyasi, do‘stlari va qiziqishlariga e’tibor qaratishlari zarur. Farzand bilan samimiy muloqot va oiladagi sog‘lom muhit uni turli zararli illatlardan asraydi.

Ta’lim muassasalari ham profilaktika ishlarida katta rol o‘ynaydi. Maktab va oliy ta’lim muassasalarida muntazam ravishda ma’rifiy tadbirlar, uchrashuvlar va davra suhbatlari tashkil etilishi yoshlarning bu muammo haqidagi bilimlarini oshiradi. Giyohvandlikning salbiy oqibatlarini tushuntirish orqali ularda sog‘lom turmush tarziga intilish kuchayadi.

O‘zbekiston Respublikasida ham giyohvandlik bilan bog‘liq jinoyatlar dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda. Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, giyohvandlik bilan bog‘liq jinoyat sodir etib sudlangan shaxslar soni 2020-yildagi 3 941 nafardan 2024-yilda 8 373 nafarga yetib, ya’ni 4 432 nafarga yoki 53,0 foizga oshgan. Ushbu raqamlar giyohvandlikka qarshi kurashni yanada kuchaytirish, yoshlar o‘rtasida profilaktika ishlarini kengaytirish va aholining huquqiy madaniyatini oshirish zarurligini ko‘rsatadi.

Davlat va huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan giyohvand moddalar savdosiga qarshi qat’iy choralar ko‘rilmoqda. Biroq muammoni faqat jazolash orqali hal etib bo‘lmaydi. Profilaktika, ta’lim, tibbiy yordam va reabilitatsiya xizmatlarini rivojlantirish ham muhim ahamiyatga ega.



Xulosa qilib aytganda, giyohvandlik nafaqat bir inson, balki butun jamiyat kelajagiga tahdid soluvchi xavfli illatdir. Shu bois har bir fuqaro sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilishi, yoshlarni qo‘llab-quvvatlashi va giyohvandlikka qarshi kurashda faol ishtirok etishi lozim. Sog‘lom avlod va xavfsiz jamiyatni barpo etish barchamizning umumiy maqsadimizdir.

Rustam QORABOYEV,
Jinoyat ishlari bo‘yicha
Shirin shahar sudining tergov sudyasi

O'zbek futbolchilarining “Jahon chempionati — 2026”da birinchi bor maydonga chiqishlariga bag'ishlanadi

Mundial kundaligi



O‘ZBEK FUTBOLI, 114 YILLIK TARIXDAGI YANGI SAHIFA..

1912-yilda qadim Turonning durdonasi Xuqandi Latif bag‘rida Muskomanda (ma’nosi Musulmonlar jamoasi) futbol jamoasi tashkil topdi. Bu nafaqat O‘zbekiston, balki butun Markaziy Osiyo (Buyuk Osiyo) futboli tarixidagi ilk jamoalardan biri bo‘lgan. Ana shu kundan boshlab o‘zbek futbolining shonli va mashaqqatli yo‘li boshlangan. Ammo tarix faqat g‘alabalardan iborat emas. 1979-yil 11-avgust kuni o‘zbek futboli eng og‘ir sinovlardan birini boshdan kechirdi. Osmon-u falaklarda sodir bo‘lgan fojiada “Paxtakor” jamoasining 17 nafar zabardast o‘g‘lonlari halok bo‘ldi. Bu nafaqat bir jamoaning, balki butun millatning musibati edi. O‘sha kun o‘zbek futbolining qora sahifalaridan biri sifatida tarixga muhrlangan bo’lsa-da, millatimizning irodasi sinmadi. Oradan yillar o‘tdi, avlodlar almashdi, millionlab muxlislarning qalbida yashagan orzu esa so‘nmadi.

2025-yil 5-iyun kuni Birlashgan Arab Amirliklariga qarshi bahsdan so‘ng O‘zbekiston milliy terma jamoasi tarixda ilk bor Jahon Chempionati yo‘llanmasini qo‘lga kiritdi. Xuqandi Latifdan boshlangan yo‘l bugun Mundial sari yetib keldi. Bugun AQSHda O‘zbekiston bayrog‘i dunyo futboli grandlari – Argentina, Braziliya, Fransiya, Germaniya va Ispaniya bayroqlari bilan yonma-yon Jahon chempionatida hilpirab turibdi.

Bu shunchaki sportdagi oddiy yutuq emasdi. Bu bir asrdan oshiq tarixning, minglab futbol fidoyilarining, “Paxtakor” jamoasi bilan sodir bo‘lgan fojiada halok bo‘lgan qahramonlar xotirasining va millionlab muxlislarning duolari ijobati edi. 90 daqiqa davomida butun mamlakat bir nafasda, bir tan-u bir jon bo‘lib Jahon Chempionatidagi ilk va tarixiy uchrashuvimizni kuzatdi. Sayyoramizning eng kuchli terma jamoalari safida O‘zbekiston ham maydonga tushdi. Tarixda birinchi marta biz o‘zganing orzusi uchun emas, o‘z orzumiz uchun muxlislik qildik!

2016-yildan boshlab O‘zbekiston futbol jamoasi uchun evrilish yillari boshlandi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev boshchiligida futbol uchun buyuk islohotlar qilindi. Bu islohotlarning mevasini esa bugun biz O‘zbekiston milliy terma jamoasining mundialda ishtirok etayotganida ko‘rishimiz mumkin!

Jahon Chempionati bu shunchaki oddiy futbol musobaqasi emas. Bu insoniyatni birlashtiruvchi eng yirik va muhim voqealardan biri. 2022-yilgi mundialni 5,6 milliard tomoshabin kuzatgani, ya’ni Yer aholisining qariyb 70 foizi ushbu musobaqaga befarq bo‘lmagani buning yaqqol isbotidir. Har bir o‘yin o‘rtacha 175 million kishi tomonidan tomosha qilingan. Final bahsi esa 1,5 milliard auditoriyani jamlab, tarixiy rekord o‘rnatgan. Ijtimoiy tarmoqlarda musobaqa bilan bog‘liq kontentlar 262 milliard marta ko‘rilgan va qariyb 6 milliard o‘zaro ta’sir qayd etilgan. Shu bois, Jahon Chempionati har doim sport va media olamidagi eng ulkan mega-hodisa sifatida e’tirof etiladi.

18-iyun kunidan maydonga tushgan ummati Muhammadning 26 nafar jasur va matonatli o‘g‘loni nafaqat O‘zbekiston sharafi, balki butun islom olamining sha’ni va ezgu tilaklari hamda bizga muxlislik qilayotgan barcha do‘st xalqlarning ishonchi uchun ham kurashga kirishdi. Bu qorako‘zlar safida chetdan jalb qilingan birorta ham futbolchi yo‘q. Ularning barchasi shu zaminda tug‘ilib, kamol topgan, el-yurtining orzu-umidlarini yuragida asrab kelayotgan asl o‘zbek o‘g‘lonlaridir.

Ular buyuk Turon zaminining mardlik va jasorat an’analarini davom ettirayotgan, ajdodlar sharafiga munosib bo‘lishni maqsad qilgan alp yigitlardir. Ularning ortida ajdodlar ruhi, xalqlar ishonchi va millionlab qalblarning duosi turibdi. Ular ertaga g‘alaba qozonadimi yoki yo‘q, buni vaqt ko‘rsatadi. Ammo bir haqiqat bor. Ular, allaqachon, tarix zarvaraqlaridan munosib o‘rin egallashga muvaffaq bo‘lishdi.

Keling, aziz yurtdoshlar, yigitlarimizni duo qilaylik, qo‘llab-quvvatlaylik! Chunki maydonda faqat futbolchilar emas, balki butun O‘zbekistonning orzusi to‘p surmoqda!

Olg‘a, O‘zbekiston!

Sherzodxon QUDRATXO‘JA,
O‘zJOKU rektori

Bugunning she’ri

BU MAYDONGA TUSHMOQ O‘ZI G‘ALABADIR

Ona yurtim, teraklaring, tollaringdan,
Esgan jonbaxsh, hayotbaxsh shamollaringdan.
Bir zamonlar paxtangni xo‘p kuylagandim,
Endi bir she’r aytayin futbollaringdan.

Raqibimiz Kolumbmi yo Kolumbiyo?
Mening bobom g‘olibmi yo Kolumbmi yo?
Bizga faqat bir koptok ber, ko‘hna dunyo,
Bor matohing, ashqol-u dashqollaringdan.

Futbol, futbol, bir armonim ortib qolgan,
Yillar mendan koptogimni tortib olgan.
Men chempion bo‘larmidim shu zamonda,
Kechib barcha romlaring-u follaringdan.

Yer shari ham koptok misol aylonadir,
Aylanadir, kecha-kunduz aylanadir.
Zo‘r o‘yinga shaylanmoqda ro‘yi jahon,
Ogoh bo‘lgil korchallon dallollaringdan.

Bosh murabbiy, ya’ni janob Fabioga,
Bir savolim bordir noxos, favqulodda:
Qay biri zo‘r: qurolmi yo, futbolmi yo?
Jahon bozoriga chiqqan mollaringdan?

Sharq-u G‘arbdan aytsam agar — gapni qo‘ygin,
Yarmi harb-u zarb bo‘lsa gar, yarmi — o‘yin.
Aytgil endi erta-indin ne kutaylik?
Ne shamollar — Janub va Shimollaringdan?

Demak, faqat futbol qolmish, faqat futbol,
Olam ahlin birlashtirar u bemalol.
Inimjonim, boshingdagi do‘ppingdan ayt,
Yer yuzini zabt etgan timsollaringdan.

Isming Abbosmidi, Sherzod va yo Eldor,
Senga hamroh bo‘lsin faqat nomus va or.
Shashtlaringda Alpomishning shiddati bor,
Ko‘ksingdagi yolqinlaring, yollaringdan.

Prezident o‘zi duo berdi sizga,
O‘ttiz sakkiz millionli xalq izingizda.
Bu hisobli dunyo derlar, hisoblaring —
Goh nol-u bir, gohi nol-u nollaringdan.

Har bir zarbang el-u yurtga tuhfa bo‘lgay,
Buni hech kim bilmasa ham FIFA bilgay.
Olam xabar topdi noming yangraganda,
Sen yetishgan marra-yu kamollaringdan.

Bu maydonga tushmoq o‘zi g‘alabadir,
Mardi maydon asli zamon talabidir.
Bayroqlaring bir qadrdon ko‘rinadir,
Baxting balqib yulduzing, hilollaringdan.

Sen bilandir barcha mulki turoniylar,
Otaxonlar, onaxonlar, nuroniylar.
Mingga kirgan chinorlardan yuz ming duo,
Yana yuz ming — kampirlar-u chollaringdan.

Dilbandlaring — yangroq so‘zing, yorug‘ yuzing,
Uch million muxlislaring — o‘g‘il-qizing,
Bir xalq-u bir Vatan bo‘lib ulg‘aygusi,
Jo‘juqlaring — qand-u asal, bollaringdan.

She’rim balki bir kun ketar tahrirlanib,
Men yuz yillar yursam bo‘lgay faxrlanib,
O‘zbekiston, otajonim, bolajonim —
Jahon maydonida urgan gollaringdan!

Sirojiddin SAYYID,
O‘zbekiston xalq shoiri

YANGI BEKOBOD
Muassis: Bekobod tumani hokimligi

Bosh muharrir
Sarvinoz SHERALIYEVA

Manzilimiz:
"Zafar" shaharchasi, hokimiyat binosi, 3-qavat.
tel: (998) 55 902 59 94
elektron manzilimiz:
E-mail: yangibekobod@umail.uz

Toshkent viloyati Matbuot va axborot boshqarmasida 2011-yil 12-sentyabrda 03-023 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr ko‘rsatkichi 7013.
Gazeta tahririyat kompyuter bazasida terilib, sahifalandi. Buyurtma № Adadi 1825 nusxa. "NISO NASHRIYOT VA MATBAA UYI" MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Korxona manzili: Toshkent viloyati, O‘rta Chirchiq tumani,"Oq ota" Q.F.Y. Mash’al mahallasi, Markaz-1
Bosishga topshirish vaqti: 10:00.
Bosishga topshirildi: 11:00.

Sahifalovchi-dizayner
Shohida TO'RAQULOVA

ISSN 2091-5497